Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI.....	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI.....	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI.....	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHIYATI.....	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA).....	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Iloxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТРЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	1039
Qurbanioyov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Paridaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI Hujjatlashtirish.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI

Turg'unov Muxriddin Mo'yidinjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

"Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrası

katta o'qituvchisi (PhD)

E-mail: Turgunovmuxriddin77@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishning dolzarbligi va zarurati yoritilgan. Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining keng joriy etilishi korxonalar faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Shu nuqtai nazardan strategik boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini qo'llash, raqamli transformatsiyani korxonaga strategiyasiga integratsiya qilish hamda innovatsion rivojlanish omillarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning oziq-ovqat sanoati barqarorligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishdagi roli tahlil qilinib, strategik boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, strategik boshqarish, boshqarish mexanizmi, ta'sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, eksport, import.

Abstract. The article highlights the relevance and necessity of strategic management in food industry enterprises under the conditions of the digital economy. The widespread implementation of digital technologies and information systems is fundamentally transforming the processes of planning, control, and analysis within enterprises. From this perspective, applying modern approaches to strategic management, integrating digital transformation into corporate strategies, and considering innovation-driven factors are of particular importance. The study analyzes the role of the digital economy in enhancing the sustainability, efficiency, and competitiveness of the food industry and provides practical recommendations for improving strategic management practices.

Key words: strategy, strategic management, management mechanism, influencing factors, reforms, food industry, exports, imports.

Аннотация. В статье раскрыта актуальность и необходимость стратегического управления предприятиями пищевой промышленности в условиях цифровой экономики. Широкое внедрение цифровых технологий и информационных систем кардинально изменяет процессы планирования, контроля и анализа деятельности предприятий. С этой точки зрения особое значение приобретает применение современных подходов к стратегическому управлению, интеграция цифровой трансформации в стратегию предприятия и учет факторов инновационного развития. В исследовании проанализирована роль цифровой экономики в повышении устойчивости, эффективности и конкурентоспособности пищевой промышленности, а также представлены практические рекомендации по совершенствованию стратегического управления.

Ключевые слова: стратегия, стратегический менеджмент, механизм управления, факторы влияния, реформы, пищевая промышленность, экспорт, импорт.

KIRISH

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlantirish hamda uni strategik boshqarish jarayonlari amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari doirasida izchil takomillashib bormoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli¹ "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham ushbu yo'nalishlarni amalga oshirishning aniq mexanizmlari belgilab berilgan.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va jadal rivojlanishi barcha tarmoqlarda, jumladan, oziq-ovqat sanoatida ham boshqaruv tizimlarini yangicha yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt, Big Data, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda bulutli texnologiyalarning joriy etilishi korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bunday sharoitda strategik boshqaruvning roli yanada ortib, raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali boshqarish korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omilga aylanmoqda.

Oziq-ovqat sanoati iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sifatli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini uzluksiz qondirish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, ushbu sohada strategik boshqaruvni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va innovatsion yondashuvlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishning nazariy asoslari, raqamli transformatsiyaning amaliy imkoniyatlari hamda boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlash, barqaror rivojlanish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari chuqur o'rganildi. Jumladan, A. Ortiqovning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirish, ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash hamda tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan [2].

Shuningdek, M. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat sanoati iqtisodiy salohiyatini baholash bo'yicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan hamda mintaqalardagi oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy salohiyati tahlil qilingan. Ushbu yondashuv sohaning rivojlanish dinamikasini aniqlash va samaradorlikni oshirish omillarini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda esa yuqoridagi ishlardan farqli o'laroq, oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirish hamda ularni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari sohaga oid ilg'or ilmiy qarashlarni boyitish, boshqaruv tizimini innovatsion asosda rivojlantirish va oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarishni raqamli iqtisodiyot sharoitida takomillashtirishga qaratilgan tizimli, tahliliy va qiyosiy yondashuvlar qo'llanildi. Metodologiya doirasida mavjud holat tahlil qilinib, korxonalar faoliyatining tashkiliy tuzilmasi, raqamli infratuzilmasi va boshqaruv tizimi o'rganildi. Strategik maqsadlar belgilandi, xalqaro tajribalar tahlil qilindi va ularning O'zbekiston sharoitiga mos modellar ishlab chiqildi. Shuningdek, raqamli transformatsiyaga asoslangan strategik boshqaruv modeli ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlari aniqlashtirildi. Tadqiqot yakunida natijalar baholanib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari asosida kelajak istiqbollari prognoz qilindi. Metodologiya muallif tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligi va raqamli transformatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalar faoliyatida strategik boshqaruvni tashkil etish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda tashqi muhit omillari va raqobat sharoitlari chuqur tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda korxonaning ichki imkoniyatlari, resurs salohiyati hamda ishlab chiqarish imkoniyatlari o'rganiladi. Uchinchi bosqichda esa tahlil natijalari asosida strategiyalar ishlab chiqiladi va boshqaruv mexanizmlari takomillashtiriladi (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2024 yildagi PF-36-son <https://lex.uz/uz/docs/-6802687?ON-DATE=16.02.2024%2000>

1-jadval. Strategik boshqaruvning tarkibiy qismlari²

Tarkibiy qism	Ma'nosi
Operativ boshqaruv	Operativ boshqaruv tez va aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lib, kundalik faoliyatni rejalashtirish va mehnat jamoalariga rahbarlik qilishni ta'minlaydi.
Strategik rejalashtirish	Strategik rejalashtirish kelajakni oldindan ko'ra bilish va uzoq muddatli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayon, ayniqsa, ko'plab korxonalarining ichki resurslarga tayanib qisqa muddatli natijalarga ustuvorlik berishi sharoitida, alohida ahamiyat kasb etadi. Strategik rejalashtirishning asosiy vazifasi — korxonaning uzoq muddatli barqarorligini va samaradorligini ta'minlashdir.
Korxonasiyosati	Korxonasiyosati strategik yo'nalishlarni aniqlash va ularni amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi boshqaruv vositasidir. U qarama-qarshi qarorlarni muvofiqlashtirish, yagona tashkiliy reja tuzish hamda rahbarlarga vakolatlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga, umumiy nazoratni samarali amalga oshirishga ko'maklashadi.


Korxonasi faoliyatida strategik boshqaruvni joriy etishda, korxonaning amal qilayotgan tashkiliy tuzilmasi hamda milliy qadriyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv tizimini shakllantirish zarur. Ushbu qadriyatlarini strategik boshqaruv jarayonida hisobga olish ijtimoiy muhitning sog'lomligini ta'minlaydi va korxonasi jamoasida barqaror rivojlanish tamoyillarini shakllantiradi.

Strategik boshqaruvning tarkibiy qismlarini inobatga olish korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash, faoliyatni maqsadli yo'naltirish hamda zarur bo'lgan boshqaruv qarorlarini oqilona qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada korxonasi ichki va tashqi iqtisodiy muhitni chuqurroq tahlil etish, mavjud risklar va imkoniyatlarni aniqlash, shuningdek, raqobat ustunliklarini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu esa korxonaga bozorda to'g'ri pozitsiyani tanlash, strategik yo'nalishlarni aniqlash hamda uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida strategik boshqaruvni samarali tashkil etish korxonaning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydigan muhim omil sanaladi. Ushbu boshqaruv tizimini joriy etish nafaqat korxonaning ichki jarayonlarini optimallashtirish, balki tashqi bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolishning ham asosiy sharti hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida faoliyatida strategik boshqaruvni tashkil etishning bir nechta metodologik yondashuvlari mavjud bo'lib, ushbu metodologiyaning faoliyat turiga moslashuvchan shakli keltirilgan (1-rasm).

1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatini strategik boshqarish metodologiyasi³

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Oziq-ovqat sanoati tez o'zgaruvchan va murakkab soha bo'lgani sababli, strategik boshqaruv mexanizmlarini qo'llash korxonaga o'z vaqtida to'g'ri qarorlar qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish va bozor talablari bilan moslashuvni ta'minlash imkonini beradi. Ushbu jarayonni puxta tashkil etish korxonaga oldiga qo'yilgan strategik maqsad va vazifalarni o'z vaqtida hamda oqilona hal etish imkoniyatini yaratadi.

Strategik boshqaruvning mavjud bo'lmisligi korxonaning bozor sharoitlariga moslashuv jarayonini murakkablashtiradi, bu esa, o'z navbatida, raqobat muhiti kuchaygan sharoitda korxonaning bozordagi mavqeini zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli korxonaga faoliyatida strategik boshqaruvni samarali joriy etish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri sanaladi.

Korxonada strategik boshqaruvni joriy etish jarayonida, eng avvalo, aniq va asosli strategik maqsadlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlar quyidagi omillar orqali asoslanadi:

Faoliyatning yuqori daromad keltiradigan yo'nalishlarini aniqlash hamda ularga mos strategik rejalarni ishlab chiqish. Bu bosqichda tahlilning asosiy vazifasi — korxonani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va har bir yo'nalishni amalga oshirishda korxonaning bozordagi pozitsiyasini aniq belgilashdan iborat.

Korxonaning innovatsion imkoniyatlarini tahlil qilish. Ushbu bosqichda korxonaning texnik va texnologik darajasi, boshqaruv tizimi hamda tashkiliy tuzilmasi zamonaviy va optimal variantlar bilan taqqoslanadi. Bu jarayon innovatsion salohiyatni oshirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Tarmoqni rivojlantirish ssenariylarini tahlil qilish va korxonaning strategiyasiga mos maqsadlarni ishlab chiqish. Bunda iqtisodiy omillar, raqobat muhiti hamda bozor talablari inobatga olinadi.

Korxonaning strategik pozitsiyasini shakllantirishda obyektiv cheklolarni hisobga olish. Strategik maqsadlarni belgilashda dastlabki yondashuv korxonaning innovatsion salohiyatiga, strategik ustunliklariga va uzoq muddatli maqsadlariga asoslanadi.

Asosiy strategik maqsadlar tizimini shakllantirish. Ushbu bosqichda asosiy strategik maqsadlarni o'zaro uyg'unlashtiruvchi "Maqsadlar daraxti" konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Bu yondashuv korxonaning strategik qarorlarini tizimli tarzda rejalashtirish va ularni izchil amalga oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarini strategik boshqarish ularning barqaror rivojlanishi, samaradorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga keng ko'lamda joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilish imkonini beradi.

Strategik boshqaruv tizimiga raqamli transformatsiya elementlarini integratsiya qilish korxonalar faoliyatini tizimli rejalashtirish, bozor talablariga moslashish va innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash strategik boshqaruv samaradorligining ajralmas tarkibiy qismlari sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik boshqaruvini takomillashtirish nafaqat korxonaga miqyosida iqtisodiy natijadorlikni oshirishga, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik omillarni yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зиявитдинова Н. М. Кластерный подход в стратегии инновационного развития агропромышленного комплекса региона // Интернаука: электрон. научн. журн. – 2019. – №23 (105).
2. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в XXI веке: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2002. – 128 с.
3. Katerina Kutran. *Organizational and Economic Arrangements of Economic Systems Management*. Revista ESPACIOS. ISSN 0798-1015. Vol. 38 (No. 46), Year 2017, pp. 41–51.
4. Керашев А. А., Байбекова Р. А. Организационно-экономические аспекты создания и эффективного функционирования вертикально-интегрированных формирований в АПК // Вестник Адыгейского гос. ун-та. – 2007. – №1. – С. 54–60.
5. Кульман А. А. Экономические механизмы. – М.: Прогресс; Универс, 1993. – 92 с.
6. Полухин А. А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России / А. А. Полухин // Аграрная Россия. – 2012. – №5. – С. 23–29.
7. Саидова Д. Н., Рустамова И. Б., Турсунов Ш. А. *Аграр сиёсат ва озиқ-овқат хавфсизлиги*. – Т.: О'quv qo'llanma. "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 112 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
